



O'ZBEKISTONDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARI PUL OQIMINI PROGNOZ QILISH MEKANIZMLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

PhD **Shamansurova Zilola Abduvahitovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-5152-3518

z.shamansurova@tsue.uz

Annotatsiya. Hozirda jahon miqiyosida moliyaviy menejmentning asosiy funksional elementi hisoblangan moliyaviy rejalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilmoqda. Xususan, global pandemiya sharoitida tashqi bozorlardagi o'zgaruvchan muhitga tez moslanuvchan moliyaviy rejalashtirish tizimi va uning strategik rejalar bilan uyg'unlashtirilgan mukammal modelini shakllantirish yuzasidan maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, moliyaviy menejmentning asosiy funksional elementlaridan biri kompaniyalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kompleks baholashning keng ko'rsatkichlar arsenalini mujassamlashtiruvchi moliyaviy diagnostikaning tashkiliy arxitekturasini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, innovatsion faoliyat, moliya, korporativ moliya, aksiyadorlik jamiyati, moliyalashtirish, moliyaviy menejment, korporativ boshqaruv, qimmatli qog'oz, kapital, risk, depozit, kompleks baholash.

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD **Шамансурова Зилола Абдувахитовна**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В настоящее время во всем мире широко исследуются вопросы совершенствования системы финансового планирования, которая является основным функциональным элементом финансового менеджмента. В частности, в условиях глобальной пандемии проводятся целевые исследования по формированию системы финансового планирования, способной быстро адаптироваться к меняющейся конъюнктуре на внешних рынках и ее совершенной модели в сочетании со стратегическими планами. Также один из основных функциональных элементов финансового менеджмента ориентирован на совершенствование организационной архитектуры финансовой диагностики, которая воплощает в себе широкий арсенал показателей комплексной оценки финансово-хозяйственной деятельности компаний.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, финансы, корпоративные финансы, акционерное общество, финансирование, финансовый менеджмент, корпоративное управление, ценные бумаги, капитал, риск, депозит, комплексная оценка.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FORECASTING MECHANISMS FOR CASH FLOWS OF JOINT-STOCK COMPANIES IN UZBEKISTAN

*PhD Shamansurova Zilola Abduvahitovna
Tashkent State University of Economics*

Abstract. *Currently, the issues of improving the financial planning system, which is the main functional element of financial management, are widely studied all over the world. In particular, in the context of a global pandemic, targeted research is being conducted on the formation of a financial planning system capable of quickly adapting to changing conditions in foreign markets and its perfect model in combination with strategic plans. Also, one of the main functional elements of financial management is focused on improving the organizational architecture of financial diagnostics, which embodies a wide range of indicators for a comprehensive assessment of financial and economic activities of companies.*

Keywords: *innovation, innovation activity, finance, corporate finance, joint stock company, financing, financial management, corporate governance, securities, capital, risk, deposit, comprehensive assessment.*

Kirish.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati olib borilmoqda. Chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, korporativ boshqaruv tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda «korxonalarda korporativ moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish foydalanilmayotgan resurslar va moliyaviy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, korxonalar moliyaviy siyosati sohasida shakllanib qolgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri – korxonalar miqyosida moliyaviy menejment samaradorligini oshirish imkonini beradi». Shuning uchun ham har bir mamlakatda shakllantirilgan milliy iqtisodiyot va uning taraqqiyotini o'ziga xos jihatlari moliya tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonlari va mexanizmi, jahon iqtisodiyoti rivojlanish siklining turli bosqichlarida, siyosiy, ijtimoiy va institutsional omillar ta'siri ostida o'zgarib turuvchi makroiqtisodiy vaziyatlar tufayli amaliyotga joriy etilishi bo'yicha turli risklarga duch keladi. Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalari, jumladan, bugungi kunda aksariyat davlatlar iqtisodiyotida kutilayotgan retsessiya holatlari O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning risklilik darajasiga ta'sir etmay qolmaydi. Biroq, ta'kidlash lozimki, inqiroz nafaqat bankrotlik holatlari yoki ko'plab moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi, balki iqtisodiy o'sishni qayta tiklash va biznesni keng ko'lamli modernizatsiya qilish zaruriyatini anglagan holda yangicha yondashuv va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlar korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirish borasida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lgan bo'lsada, biroq xalqaro amaliyotda kompaniyalar istiqbolini prognoz qilishda keng foydalaniladigan korporativ baholash instrumentlarini joriy etishning amaldagi holati bo'yicha salbiy jihatlarni bartaraf etish kabi dolzarb masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy menejment aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatini hamda moliyaviy resurslar harakatini boshqaradi va moliyaviy resurslar xavfsizligini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda moliyaviy menejment korxonalarda inqirozga qapshi boshqaruvni ham amalga oshiradi. Inqirozga qarshi boshqaruv moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inqirozlar yuz berishi mumkin

bo'lgan holatlarni moliyaviy menejment o'z funksiyalari bilan bartaraf etadi va korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqan holda quyida moliyaviy menejment mohiyati, korxonalar moliyasi va unda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentini samarali tashkil etishning usul va vositalarini takomillashtirish yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar o'z fikrlarini hamda ilmiy qarashlarini bayon qilib o'tishgan.

Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda menejmentning maxsus sohasi sifatida o'ziga xos boshqaruv tamoyillari va prinsiplariga asoslangan moliyaviy menejment XIX-XX asrlarda maxsus bilimlar sohasi sifatida shakllandi. Bu borada amerikalik mutaxassis Y.U.Briksen moliyaviy menejmentni maxsus fan sifatida XIX asrning 90-yillarida shakllanganligi to'g'risida fikr bildirib o'tgan.

Professor I.T. Blank ta'kidlaydiki, moliyaviy menejment sohasida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolarning doimiy ravishda kengayib borganligi va natijada tadqiqotning metodologik apparatini tobora chuqurlashib borishi natijasida uni bir necha bosqichlarda rivojlanib borganligini ta'kidlaydi.

V.A.Lyalin va P.V.Vorobevlar ta'kidlashlaricha, "moliyaviy menejment - korxonada o'z va qarz mablag'laridan samaraliroq foydalanishi hamda eng kam tavakkalchilik sharoitida yuqori foyda olishni ta'minlashning uslublari, yo'nalishlari haqidagi fandir". Albatta, bunday yondoshuvda izlanish predmeti nisbatan keng olinmokda. Biroq, har ikkala qarashlarda ham tizimlilik etishmaydi va bu holatda moliyaviy menejmentning u yoki bu maxsus fanlar (moliyaviy tahlil, moliyaviy hisob va hisobot, moliyaviy matematika va h.k.) o'rganish ob'ekti bilan chalkashtirilishiga yo'l qo'yilayotir.

Xususan, chet ellik iqtisodchi olim M.M.Prusak iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sish uchun real sharoitlarni ta'minlash umuman davlatda ham, mintaqalarda ham investitsiya faoliyatini faollashtirishni talab etishni ta'kidlaydi.

J.Tobinning fikriga ko'ra, hukumatning pul-kredit va soliq-byudjet siyosatini ma'lum turdagi aktivlarni xususiy sektorga taklifi sifatida qarash lozim. Xususiy sektorning ushbu taklifga munosabatini esa, aktivlarga bo'lgan talabning tarkibini, ularning daromadlilikiga ko'ra, o'zgarishi sifatida qarash zarur.

A. Demirgins-Kint, R.Levin, M.Pagano, D.Eysmoglu kabi iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar moliya sektorining rivojlanish darajasi bilan real sektorning rivojlanish darajasi o'rtasida ijobiy korrelyasion bog'liqligining mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni, mamlakatda moliya sektorining rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, real sektor korxonalarini faoliyatining rivojlanish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ba'zi iqtisodchilar moliyaviy menejment tushunchasini maqsadli boshqaruv tizimi sifatida talqin etmokedalar. Jumladan, I.T.Balabanov fikricha, "moliyaviy menejment - moliyaviy resurslar harakati va bu jarayonda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlarni boshqarish maqsadini ishlab chiqish va ularga moliya dastaklari yordamida ta'sir etish jarayonini xususiyatlaydi".

Menejment va bozor akademiyasi muxbir a'zosi, mazkur akademiya qoshidagi moliyaviy menejment instituti direktori E.S.Stoyanova tahriri ostida chiqqan "Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot" darsligida ta'kidlanishicha, "moliyaviy menejment korxonada o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun foydalanadigan usullarning zaruriy majmuasidir". Bu erda asosiy narsa - bosh maqsadga zid kelmaydigan, unga erishishni ta'minlaydigan usullarni tanlay bilish va qo'llay olishdadir. Moliyaviy menejment mohiyatini bunday tushunish yuqoridagi qarashlardagi kabi aniq izlanish predmetini ifodalasada, unda moliyaviy menejment jarayonining tashkiliy-iqtisodiy asoslari etarlicha yoritila olinmagan.

Bir guruh taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik biznes sub'ektlari aylanma mablag'larining 60 foizdan ortiq qismi

taqsimlanmagan foyda hisobidan moliyalashtirilayotganligi sababli, ularning investitsion harajatlarni moliyalashtirish imkoniyati juda cheklangan .

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlantirish, dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aksiyadorlik jamiyatining pul oqimi investitsiya loyihasini amalga oshirish va jamiyat aktivlarining ishlashi natijasida hosil bo'lgan pul mablag'larini vaqt bo'yicha taqsimlangan tushumlar va to'lovlari hisoblanadi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatining barcha turdagi moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishda pul oqimini kirimi va chiqimini inobatga olgan holda amalga oshiradi. SHuningdek, vaqt o'tishi bilan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy faoliyatidan shakllangan mablag'larining bunday harakatining uzluksiz jarayoni amalga oshirilsa, jamiyatning pul oqimini aniqlashga imkoniyat beradi.

Mazkur dissertatsiya ishimizning ob'ekti hisoblangan, "Andijondonmahsulot" AJ, "Andijon hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ va "Qo'qon mexanika zavodi" AJlarining pul oqimlari tahlilini amalga oshiramiz. "Andijondonmahsulot" AJning pul oqimlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

"Andijondonmahsulot" AJning pul oqimlari dinamikasi, mlrd.so'mda

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021y.
Operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	28,2	44,8	62,8	30,4	13,1
Investitsiya faoliyatidan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	(9,1)	(7,6)	(0,2)	(0,8)	-
Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	(2,6)	(5,7)	(5,1)	(4,8)	3,5
Jami to'langan soliqlar	8,5	34,9	60,7	25,5	13,7
Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul oqimi kirimi/chiqimi	8,0	(3,4)	(3,2)	(0,7)	2,9
Yil boshidagi pul mablag'lari	0,2	8,2	4,8	1,6	0,9
Yil oxiridagi pul mablag'lari	8,2	4,8	1,6	0,9	3,8

Manba: "Andijondonmahsulot" AJning pul oqimlari hisobotidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "Andijondonmahsulot" AJning 2017 yildagi yil oxiridagi pul oqimi 8,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda deyarli 2,2 barobarga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi

2017 yilda 28,2 mlrd. so'mga etgan bo'lsa, 2021 yilda 13,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. SHuningdek, operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi tushib ketishiga material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari chiqimi keskin ortib ketganligi hisoblanadi.

Xususan, 2021 yilda 2017 yilga nisbatan deyarli 3,3 barobarga oshib ketgan. Aksiyadorlik jamiyatining investitsiya faoliyatidan sof pul oqimlari tahlilida esa, 2017 yilda 9,1 mlrd. so'm chiqim bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib nol so'mni tashkil etgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, uzoq muddatli investitsiyalar bilan bo'ladigan jarayonlar amalga oshirilmagan. 2017 yilda esa 9,1 mlrd. so'mlik asosiy vosita sotib olingan. 2017 yilda

2,6 mlrd. so'm moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimlari chiqim bo'lgan, 2021 yilda 3,5 mlrd. so'm moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimidan kirim bo'lgan. Sababi, 2017 yilda uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzarlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari moliyaviy faoliyatidan sof pul oqimining kirimidan chiqimi ko'p. 2021 yilda esa uzoq va qisqa muddatli kredit bo'yicha pul tushumlari 11,6 mlrd. so'm bo'lsa, chiqimi esa 11,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Aksiyadorlik jamiyatining to'langan soliqlarini tahlil qilsak, 2017 yilda 8,5 mlrd. so'mni tashkil etgan, biroq ushbu ko'rsatkich 2021 yilda 13,7 mlrd. so'mga etgan. Biroq aksiyadorlik jamiyati moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul oqimi salbiy bo'lishiga asosan to'langan soliqlar hajmi yuqori bo'lganligi sabab bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Aytish joizki, "Andijondonmahsulot" AJning sof pul oqimlarini operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyatidan olingan sof pul oqimlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning sof pul oqimi kamayishiga investitsiya va moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimlarining chiqimi yildan-yilga o'sib borganligi hisoblanadi. SHuningdek, to'langan soliqlar hajmi esa, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul chiqimi ortishiga olib kelmoqda.

"Andijon hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning pul oqimlari 2-jadvalda keltirilgan:

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, "Andijon hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 2017 yil oxiridagi pul oqimi

0,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda deyarli 345 barobarga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi 2017 yilda 58,8 mlrd. so'mga etgan bo'lsa, 2021 yilda 76,2 mlrd. so'mga ko'payganligi hisobidan bo'lgan.

2-jadval

"Andijon hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning pul oqimlari dinamikasi, mlrd. so'mda

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021y.
Operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	58,8	73,0	55,5	43,00	76,2
Investitsiya faoliyatidan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	(16,4)	-	-	-	62,7
Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	(1,0)	0,1	(1,0)	(1,90)	(51,9)
Jami to'langan soliqlar	41,4	70,3	57,5	41,10	18,1
Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul oqimi kirimi/chiqimi	-	2,8	(3,0)	0,05	68,9
Yil boshidagi pul mablag'lari	0,2	0,2	3,0	0,02	0,1
Yil oxiridagi pul mablag'lari	0,2	3,0	0,02	0,07	69,0

Manba: "Andijon hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning pul oqimlari hisobotidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Aksiyadorlik jamiyatining investitsiya faoliyatidan sof pul oqimlari tahlilida esa, 2017 yilda investitsiya faoliyatidan sof pul oqimidan chiqimi 16,4 mlrd. so'm salbiy bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 62,7 mlrd. so'mlik sof pul oqimi kirimi amalga oshirilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotishdan tushgan tushum keskin ortganligidan dalolat beradi. 2017 yilda esa, 16,4 mlrd. so'mlik asosiy vosita sotib olinganligini ko'rsatadi. 2021 yilda esa, 62,7 mlrd. so'mlik uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotgan. 2017 yilda 1,0 mlrd. so'm moliyaviy faoliyatidan sof pul oqimlari chiqimi bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda 51,9 mlrd. so'm moliyaviy faoliyatidan sof pul oqimi chiqim

bo'lganligi moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimining salbiy bo'lishiga olib kelgan. Sababi, 2017 yilda uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha to'lovlari 0,7 mlrd. so'm va uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha to'lovlari 0,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2021 yilda esa, xususiy aksiyalarni sotib olganda va ularni sotganda pul to'lovlari 35,8 mlrd. so'm bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatining to'langan soliqlarini tahlil qilsak, 2017 yilda 41,4 mlrd. so'mni tashkil etgan, biroq ushbu ko'rsatkich 2021 yilda 18,1 mlrd. so'mga etgan. Biroq, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul oqimi salbiy bo'lishini asosan to'langan soliqlar hajmining yuqori bo'lganligida ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2018 yilda to'langan soliqlar 70,3 mlrd. so'mga etishi, 2019 yilda 57,5 mlrd. so'mni tashkil etishi sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatining soliq yuki yuqori ekanligidan dalolat beradi.

"Andijon hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning sof pul oqimlari operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyatidan olingan sof pul oqimlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning sof pul oqimi kamayishiga investitsiya va moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimlari chiqimi yildan-yilga oshib borganligi hisoblanadi. SHuningdek, to'langan soliqlar hajmi esa, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul chiqimini ortishiga olib kelmoqda.

"Qo'qon mexanika zavodi" AJning pul oqimlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

3-jadval

"Qo'qon mexanika zavodi" AJning pul oqimlari dinamikasi, mlrd. so'mda

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021y.
Operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	26,0	20,4	6,7	15,4	22,4
Investitsiya faoliyatidan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	(1,4)	(1,1)	-	(1,5)	(1,2)
Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi/chiqimi	(2,2)	(0,6)	-	(0,8)	(1,0)
Jami to'langan soliqlar	22,1	18,3	6,4	8,9	10,2
Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul oqimi kirimi/chiqimi	0,3	0,4	0,3	4,2	10
Yil boshidagi pul mablag'lari	0	0,3	0,7	1,0	5,2
Yil oxiridagi pul mablag'lari	0,3	0,7	1,0	5,2	15,2

Manba: "Qo'qon mexanika zavodi" AJning pul oqimlari hisobotidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval tahlilidan, "Qo'qon mexanika zavodi" AJning 2017 yil oxiridagi pul oqimi 0,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda deyarli 50,7 barobarga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, operatsion faoliyatdan sof pul oqimlari kirimi 2017 yilda 26,0 mlrd. so'mga etgan bo'lsa, 2021 yilda 22,4 mlrd. so'mga kamayganligi hisobidan bo'lgan.

Aksiyadorlik jamiyatining investitsiya faoliyatidan sof pul oqimlari tahlilida esa, 2017 yilda investitsiya faoliyatidan sof pul oqimidan chiqimi 1,4 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 1,2 mlrd. so'mlik sof pul oqimi chiqimi bo'lgan. Bu uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish ortganligidan dalolat beradi. 2017 yilda esa, 1,4 mlrd. so'mlik asosiy vosita sotib olingan bo'lsa, 2021 yilda esa 1,2 mlrd. so'mlik asosiy vosita sotib olganligini ko'rishimiz mumkin. 2017 yilda 2,2 mlrd. so'm moliyaviy faoliyatidan sof pul oqimlari chiqimi bo'lgan, 2021 yilda 1,0 mlrd. so'm moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimdan chiqim bo'lganligi moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimining salbiy bo'lishiga olib kelgan. Sababi, 2017 yilda uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha to'lovlari 2,1 mlrd. so'mni tashkil etgan, lekin ushbu ko'rsatkich 2021 yilda 1,0 mlrd. so'mga etgan. Aksiyadorlik jamiyatining to'langan soliqlarini

tahlil qilsak, 2017 yilda 22,1 mlrd. so'mni tashkil etgan, biroq ushbu ko'rsatkich 2021 yilda 10,2 mlrd. so'mga etgan.

Aksiyadorlik jamiyati moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul oqimi salbiy bo'lishiga asosan to'langan soliqlar hajmining yuqori bo'lganligida ko'rishimiz mumkin. "Qo'qon mexanika zavodi" AJning sof pul oqimlari operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyatidan olingan sof pul oqimlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning sof pul oqimi kamayishiga investitsiya va moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimlari chiqimi yildan-yilgan o'sib borganligi hisoblanadi.

"Andijondonmahsulot" AJning sof pul samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (4.4-jadval):

4-jadval

"Andijondonmahsulot" AJning sof pul samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tahlili

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021y.
Q_{tq}	0,70	0,35	0,3	0,16	0,31
P_m	3,13	0,82	0,31	0,18	1,07
Bivera koeffitsienti	0,05	-0,16	0,08	0,12	0,20
K_{kop}	0,28	-0,30	0,12	0,13	0,22
K_{SPO}	-1,26	-0,15	0,07	0,02	0,30

Manba: "Andijondonmahsulot" AJning pul oqimlari hisobotidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval tahlili ma'lumotlaridan "Andijondonmahsulot" AJning sof pul samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar hisoblanagan to'lov qobiliyati (Q_{tq}) koeffitsienti 2017 yilda 0,70 ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 0,31 ga etganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning tadqiqot natijalarimizga ko'ra, to'lov qobiliyati koeffitsienti me'yoriy qiymatlari $Q_{tq} \geq 0,4$ bo'lishi lozim hisoblanadi. Bizning tahlilimizdan ko'rinib turibdiki, to'lov qobiliyati koeffitsientining me'yoriy qiymati birdan past. Bu esa o'z navbatida, "Andijondonmahsulot" AJning to'lov qobiliyati past ekanligi va o'z faoliyatini rivojlantirishga mablag' etarli emasligidan dalolat beradi.

Aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlarini bajarish uchun sof pul mablag'lari etarligi (P_m) koeffitsienti 2017 yilda 3,13 bandni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 1,07 bandga etganligini ko'rsatadi. Ushbu koeffitsientning birdan katta bo'lishi jamiyatning operatsion faoliyatidan olingan sof pul oqimi moliyaviy majburiyatlarini bajarish, xususan, moliyaviy faoliyat bilan bog'liq foiz ko'rinishidagi to'lovlarni tashqi manbalar orqali pul jalb qilmasdan to'lash qobiliyatini ko'rsatadi. Jumladan, "Andijondonmahsulot" AJning tahlilidan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatining oxirgi yilda majburiyatlarini bajarish uchun sof pul mablag'lari etarligi koeffitsienti birdan yuqori ekan. SHuningdek, Bivera koeffitsienti 2017 yilda 0,05 ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 0,20 ni tashkil etdi.

Bizning tadqiqot natijalarimizga ko'ra, bivera koeffitsientining me'yoriy normasi 0,17-0,4 ni tashkil etadi. Agar koeffitsient qiymati ko'rsatilgan oraliqda bo'lsa, aksiyadorlik jamiyati moliyaviy barqaror hisoblanadi. Agar koeffitsient qiymati -0,15 dan 0,17 oraliqda bo'lsa, aksiyadorlik jamiyatining bankrotligiga besh yil qolganligini ko'rsatadi. Agar koeffitsient qiymati -0,17 dan kichkina bo'lsa, aksiyadorlik jamiyatining bankrotligiga bir yil qolganligini ko'rsatadi. Bizning tahlilimizda "Andijondonmahsulot" AJning Bivera koeffitsienti 2021 yilda 0,20 ni ko'rsatadi.

O'z navbatida, "Andijondonmahsulot" AJ moliyaviy holati barqarorligidan dalolat beradi. Sof foydani qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash (K_{kop}) koeffitsienti 2017 yilda 0,28 bandni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 0,22 ni tashkil etganligini ko'rsatadi. Ushbu

koeffitsient $K_{kop} \geq 1$ bo'lsa, aksiyadorlik jamiyati o'z faoliyatini moliyalashtirishda o'z mablag'lari manbalari to'liq etarli ekanligini anglatadi. Agar mazkur koeffitsient $K_{kop} < 1$ bo'lsa, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirish uchun o'z mablag'lari etarli emasligini ko'rsatadi.

Bu esa aksiyadorlik jamiyati faoliyatini moliyalashtirishda tashqi manbalar evaziga moliyalashtirishga olib keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatining sof foydasi qisqa majburiyatlarini deyarli 30 foizga qoplash qobiliyatiga ega. Sof pul oqimlarining etarligi (K_{spo}) koeffitsienti 2017 yilda 1,26 bandni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 0,30 bandga ko'tarilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu koeffitsientning me'yoriy qiymati birdan katta bo'lishi lozim.

Xususan, mazkur koeffitsient aksiyadorlik jamiyatining sof pul oqimi uzoq va qisqa muddatli majburiyatlarni qay darajada qoplashini ko'rsatadi. Xulosa qilganda, "Andijondonmahsulot" AJning to'lov qobiliyatini oxirgi yillar pasayganligini sof pul oqimlarini pasayganligi bilan izohlanadi. Jamiyatning yillar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda samaradorlik ko'rsatkichlari pasayish tendensiyasiga ega.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatining sof pul oqimlari samaradorligiga baho beradigan bo'lsa, to'lov qobiliyati koeffitsienti, majburiyatlarini bajarish uchun sof pul mablag'lari etarligi koeffitsienti, Bivera koeffitsienti, sof foydani qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash koeffitsienti va sof pul oqimlarining etarligi koeffitsienti qiymati me'yoriy qiymatdan pastligini ko'rishimiz mumkin. Aksiyadorlik jamiyati sof pul oqimlarining samaradorligi pastligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Aksiyadorlik jamiyatlarining Erkin pul oqimi aksiyadorlik jamiyatining haqiqiy pul oqimi hisoblanadi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati natijasida shakllantirgan pul mablag'larini ko'rsatadi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining dividend to'lash imkoniyatini beradi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining erkin pul oqimlari aylanma kapitalning qanchalik samarali foydalanilishini ko'rsatadi. Aylanma kapital ko'payishi evaziga erkin pul oqimlari kamaysa, demak aksiyadorlik jamiyatlari past daromadli aktivlarni sotib olishga aylanma kapitaldan samarali foydalanilmayotganligidan dalolat beradi. Aksiyadorlik jamiyatlarining erkin pul miqdori va aylanma kapital miqdori ham bir xil ko'paysa, demak aktivlari doimiy ravishda o'sib borayotganligi va pul oqimlari o'sib borayotganligini ko'rsatadi. SHuning uchun aylanma kapitalning va erkin pul oqimlarining parallel o'sishi jamiyat pul oqimlarini doimiy ravishda o'sib borishiga xizmat kiladi.

Diskontlangan pul oqimlari prognozida soliqlar to'langandan keyingi sof operatsion foyda yildan-yilga o'sib borish tendensiyasini ko'rsatdi. Biroq kapitalga qilingan sof reinvestitsiyalar yillar kesimida oshib borishi natijasida jamiyatning erkin pul oqimlari salbiy bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida, jamiyatning rivojlanishiga yo'naltirilgan pul mablag'lari miqdorini ko'rsatadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining erkin pul oqimi salbiy bo'lishi jamiyatning holati yomonligini ko'rsatmaydi. Sababi, aksiyadorlik jamiyatining yirik miqdordagi pul mablag'lari kapitalga qilinayotgan investitsiyani amalga oshirishni ko'rsatadi. Xususan, asosiy vositalar sotib olinayotganligi va ishlab chiqarishda tug'ridan-to'g'ri ishtirok etayotgan asbob-uskunalarning modernizatsiya qilinayotganligini ko'rsatadi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejerlari jamiyat rivojlanishiga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilganliklari sababli yuqori rentabellik orqali uzoq muddatli daromadga erishishiga xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida erkin pul oqimi usulidan foylanilsa, kapital xarajat, aylanma kapital va amortizatsiya xarajatlari o'zgarishi orqali jamiyatning sof investitsiyaga yo'naltirilgan pul mablag'lari miqdorini baholash imkoniyati yaratiladi. Natijada aksiyadorlik jamiyatida kapital xarajat, aylanma kapital va operatsion xarajatlarni prognoz qilish hamda jamiyatning ichki qiymatini, pul oqimlarini diskont stavkasini aniqlashga xizmat qiladi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatining dividend to'lash qobiliyatini baholashda diskontlangan pul oqimlari usulidan foydalanish orqali kelgusidagi joriy qiymatdagi pul oqimlarini baholash

imkoni bo'ladi. Natijada aksiyadorlik jamiyatida prognoz qilinayotgan pul oqimlari orqali jamiyatning investitsiya salohiyatini, kapital byudjetni shakllantirishga sarflanadigan xarajatlar me'yorini aniqlash mumkin. Aksiyadorlik jamiyatining erkin pul oqimi usuli investorlarga o'z vaqtida to'g'ri investitsiya qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari o'z mablag'laridan qanchalik samarali foydalanayotganligini, joriy qarzlari uchun etarli pul mablag'lari borligini, aksiyalarini sotib olish uchun pul mablag'lari etarliligini va investorlarga dividend to'lash imkoniyati borligini ko'rsatadi. Investorlar uchun erkin pul oqimi aksiyadorlik jamiyati holatini tahlil qilishda foydalanadigan moliyaviy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida diskontlangan pul oqimlari usulidan foydalanish jamiyatning diskontlangan pul oqimini prognoz qilishda kapitalni o'rtacha o'lgangan qiymat usuli orqali diskont stavkasini aniqlash va pul oqimini baholashda operatsion marja orqali foizlar va soliqlardan oldingi daromadni hisoblash imkoniyatini beradi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatining daromadi va xarajatlarini prognoz qilish hamda jamiyatning terminal qiymatini va jamiyatning qiymatini aniqlash imkonini beradi. SHuningdek, aksiyadorlik jamiyatining soliqlar va foiz xarajatlaridan oldingi daromadini aniqlash, aksiyadorlik jamiyatiga investorlarni jalb qilish va biznes riskini baholashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Karlibaeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari. Iq.fan.dok.il.dar. olish uchun yoz.dis. avtoreferati. -T., 2018. -30 bet.

Eshov M. Korxonaning fundamental qiymatini boshqarish: nazariya va amaliyot. Monografiya. - T.: Ma'naviyat, 2020. -200 b.

Burkhanov A. & Khudaykulov Kh. (2013) "Investment valuation in emerging markets: oportunities & specific factors". "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 7, pp. 1-9.

Damodaran A. The dark side of valuation: Valuing old tech, new tech and new economy companies, Upper Saddle River: Prentice Hall, 2001.

Damodaran A. Valuation approaches and metrics: A survey of the theory and evidence, Hanover: Publishers Inc, 2005, pp. 693-784.

Aders C., Aschauer E., & Dollinger M. (2016). Die implizite Marktrisikoprämie am österreichischen Kapitalmarkt. RWZ.

Adjusting for COVID-19 in valuations.

Aswath Damodaran Closure in Valuation: Estimating Terminal Value//Stern School of Business, pp.191-203.

Knapová B., Krabec T. and Roubíčková J. (2011). EBIT criterion: Financial analysis issues, International Journal of Mathematical Models and Methods in Applied. Issue 3, Volume 5.

Baker H.K., De Ridder A., & Råsbrant J. (2019). Investors and Dividend Yields. The Quarterly Review of Economics and Finance. doi:10.1016/j.qref.2019.09.004.

Barker R. (1999). The role of dividends in valuation models used by analysts and fund managers. The European Accounting Review, 8 (2). pp. 195-218.

Bartl M., & Gleißner W. (2020). Unternehmensbewertung: Marktrisikoprämie in Österreich. CFOaktuell

Baule R. 2018. The cost of debt capital revisited. European Financial. Business Research, Volume 12, Issue 2, pp. 721-753.